



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TARIXIY ROMANDA DINIY ULAMO SIYMOSI TALQINI ("Imom Moturidiy" romani misolida)

Shomurodov San'at Dilmurod o'g'li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tarixiy romanlarida diniy ulamolar va shayx-valiylar obrazining badiiy talqinlari, shu jumladan, Imom Moturidiy obrazining badiiy tasviri Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" tarixiy-biografik romani misolida tadqiq etiladi. Bunda adibning tarixiy obraz yaratishdagi mahorati, alloma yashab o'tgan qadim Samarqand zaminidagi diniy-aqidaviy kurashlarning badiiy ifodasi bosh qahramon bilan bog'liq tarixiy jarayonlar tizg'inida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Diniy ulamo, Imom Moturidiy, aqida va kalom ilmi, ijodkor mahorati, mo'tazila, Qur'oni karim, oq karvon, valiylik Imoul xudo, Ahmad Ibn Ismoil, Qutlug' Muhammad, Vosiq La'liy.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА РЕЛИГИОЗНЫХ УЧЁНЫХ В ИСТОРИЧЕСКОМ РОМАНЕ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «ИМАМ МАТУРИДИ»)

Шомуродов Санъат Дилмурод угли
Джизакский государственный педагогический университет, исследователь

Аннотация

В данной статье рассматриваются художественные интерпретации образа религиозных учёных и шейхов-святых в узбекских исторических романах, включая художественное изображение образа имама Матуридия, на примере историко-биографического романа Лукмана Борихона «Имам Матуридий». В статье анализируется мастерство автора в создании исторического образа, художественное выражение религиозно-идеологической борьбы на древней Самаркандской земле, где жил учёный, в контексте исторических процессов, связанных с главным героем.

Ключевые слова: религиозные ученые, имам Матуриди, наука веры и теология, творческое мастерство, мутазилиды, Священный Коран, белый караван, хранитель Им аль-Худа, Ахмад ибн Исмаил, Кутлуг Мухаммад, Васик Лали.

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF RELIGIOUS SCHOLARS IN THE HISTORICAL NOVEL (ON THE EXAMPLE OF THE NOVEL "IMAM MATURIDI")

Shomurodov San'at Dilmurod o'g'li
Jizzakh State Pedagogical University, Researcher

Abstract

This article examines the artistic interpretations of the image of religious scholars and sheikhs-saints in Uzbek historical novels, including the artistic depiction of the image of Imam Moturidiy, using the example of Luqman Borikhon's historical-biographical novel "Imam Moturidiy". In this article, the writer's skill in creating a historical image, the artistic expression of religious and ideological struggles in the ancient Samarkand land where the scholar lived,

are analyzed in the context of historical processes related to the main character.

Keywords: Religious scholars, Imam Maturidi, science of faith and theology, creative skill, Mu'tazila, Holy Quran, white caravan, guardian Im al-Khuda, Ahmad Ibn Ismail, Qutlug Muhammad, Wasiq Lali.

O'zbek tarixiy romanchiligi o'zining bir asrlilik tadrijiy taraqqiyotiga ega bo'lib, ularda o'zbek xalqi o'tmishining turli davrlarga oid kechmishi aks ettirilishi borabarda ko'hna Turkiston zaminida yashab ijod etgan buyuk shaxsiyatlar: davlatchilikka asos solgan, xalqni qiyin vaziyatlarda o'z ortidan ergashtira olgan, dunyoviy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim-u-fuzalolar, islom dini ravnaqi yo'lida butun hayotini baxshida etgan va o'z tariqatlariga asos solgan diniy arboblari qiyofasi tasvirlantirilmoqda. Luqmon Bo'rixon yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda o'zining uzoq yillik izlanishlari va alloma hayoti va ijodiyotiga oid tarixiy manbaalar va biagrafik materiallarni o'rgangan holda "Imom Moturidiy" romanini yaratgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

O'zbek tarixiy romanchiligi tadrijiy taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq tarixiy mavzudagi tarixiy romanlar yaratilgan bo'lsa-da davr siyosatining ta'siri tufayli diniy ulamolar siymosi romannavislar tomonidan chetlab o'tilishiga sabab bo'lindi. XX asr adabiy jarayon konteksida 60-yillarga kelib Xo'ja Ahror Valiy obrazi Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ilk bora talqin etilgan[1]. Shuningdek, Najmiddin Kubro, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy, Pahlavon Muhammad, Imom Moturidiy [2,3,4,5,6] kabi obrazlar shular jumlasidandir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixon Imom Moturidiy obrazi chizgilarini berar ekan, allomaning ma'naviy qiyofasini tom ma'noda xalqchil tarzda hamda o'z davrining ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi faoliyati bilan bog'lab ochib berishni maqsad qilganligini ko'rish mumkin. Asar tili nihoyatda shirali va ravon unda tushunilishi qiyin bo'lgan murakkab islomiy, aqidaviy jumlar me'yorida ishlatilgan, allomaning gap so'zlari, aqliy tafakkuri, tolibi ilmlarga dars berish jarayonidagi mudarrislik faoliyati ham sodda, ravon tilda yoritilganki, ushbu asarni o'qish va undagi ifadalanagan g'oyalarni anglash uchun kitobxondan yuksak bilimdonlik va islom dini arkomlarini bilish talab etilmaydi. Aksincha, romanni yurtimizda islom diniga e'tiqod qiluvchilarning katta qismini tashkil etuvchi ahli sunna val jamoa vakillariga o'zlari amal qiladigan aqidaning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishlari uchun zaruriy bilimlar bilan boyitilgan diniy-ma'rifiy asar deb ham aytishimiz mumkin. Asarda tasvirlangan va alloma yashab o'tgan davr islom dini tarixida aqidaviy va mafkuraviy kurashlar avj olgan hamda mutazila, jabariya, murjiya, xorijiyalar kabi oqimlar payda bo'lgan va o'zlarining notog'ri aqidaviy qarashlari bilan musulmon ahli orasida fitna va nifoq urug'ini yoyuvchi va islom dinining sof aqidaviy qarashlariga putur yetkazishni maqsad qilgan hatto ushbu maqsad mahfiy uyushmalar faoliyat yuritgan g'oyat murakkab davr hisoblangan. Vaziyat shu darajaga yetib borganki, ularning ta'siri madrasa ulomosi-yu mudarrisidan tortib, davlat boshqaruviga dahldor bo'lgan amaldor, hokim, podshohlarga ta'sir ko'rsata olishgacha borganligi romanda tarixiy misollar orqali ochib beriladi.

Romanga so'zboshi yozgan Ibrohim G'afurov asardagi Imom Moturidiy obrazi haqida ushbularni bayon etadi: "Roman qahramoni juda sog'lom, mukammal aql zakovat egasi, insonparvar, adolatparvar, tirik inson sifatida namoyon bo'ladi. U ilohiyat borasidagi turli tuman noto'g'ri qarashlarni, xato tushunchalarni chuqur tafakkur bilan aql va naqlning ishonchli kuchiga tayanib tuzatdi, sof aqidaviy tutumga o'z ilmiy istedodi orqali, chin mantiq tasdiqotlari orqali erishadi" [6;5]

Yozuvchi allomaning bolalik davri xotiralari, oilaviy muhiti, ta'lim olgan ustozlari va uning bolalikdan ma'lum bo'lgan o'zgacha sifatlarini hayotiy misollar bilan ochib berishga intiladi. Asardagi ushbu tasvir chizgilarida bu yaqqol namoyon bo'ladi: "Har bir dars, har bir saboq ong shuurida, yuragida, tafakkurida yangidan yangi dunyo ochardi. Yosh Muhammad shu qadar hayajon, shijoat bilan shug'ullandiki, atrof-muhitni, jamiyatni unutdi[6;38] Alloma siymosidagi bu kabi sifatlar nafaqat tarixiy-hayotiy misollar bilan, balki qahromon ruhiyatining individual qiyofasini jonlantirish orqali ochib beriladi. Asarda yozuvchi allomaning mana shu kabi bolalik davri xotiralarini yoritishda retrospektiv syujetdan unumli foydalanadi. Ya'ni qahramon ruhiyati va uni badiiy qoliplashda bu syjet tipi yozuvchiga ancha qo'l kelgan. Retrospektiv syujetning badiiy asardagi funksiyasi xususida A.Rahimov quyidagilarni bayon etadi: "Yozuvchi asarda sodir bo'layotgan asosiy voqealarning rivojlanishini to'xtatib qo'yib, orqaga, o'sha voqealarning boshlanish manbalariga qaytadi. Bu, ko'rincha, taqdiri tasvirlanayotgan rersonajning o'tmishiga-biografiyasining oldingi bosqichlariga qaytish tarzida yuz beradi. Bu esa o'z navbatida, rersonajlarning ahvoli ruhiyasi, xarakteri hamda kelajagini ham tasavvur qilish uchun imkon tug'diradi" [7].

Darhaqiqat romanda retrospektiv syujet linyasi asarning hayotiyiligini ta'minlashi barobarida alloma hayotining turli davrlariga oid xotiralarini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, navqiron Imom Moturidiyning o'smirlik yillaridagi ta'lim olishi bilan bog'liq jarayonlarni allomaning hamsabog'i va bolalikdagi do'sti Vosiq ibn Qosim xotiralari orqali talqin qiladi. "Ha, Muhammadda shak-shubhasiz darveshona fe'l-atvor bor edi. Goho saboqlarga qatnashmas, goho anchagina kechikib kelardi. Ne tongki, uning shu yurish-turishi ham ustozlarga, aftidan katta fazilat yanglig' ko'rinar, boshqalar darsga kelmagan, kechikkan kezlari qattiq tanbeh eshitar muallimlar Muhammadni allanechuk xayrixohlik ila qarshi olar edilar." Yozuvchi yuqoridagi tasvir chizgilari orqali Imom Moturidiyga xudo tomonidan berilgan valiylik sifatlarini, darveshona xulq atvori, yuksak iqtidorini ishonarli tarzda ochib beradi va bu badiiy asar qahramonining botiniy va zohiriy olamini osonlik bilan anglab yetishga zamin yaratadi. Yozuvchi Imom Moturidiy siymosi bilan bog'liq jarayonlarini yoritishda tarix va hayot haqiqatidan chekinmaslikka harakat qiladi va asardagi insoniy konfliktlarini o'z maromida talqin etadi. Masalan, Abu Mansur Moturidiy kabi buyuk siymolardagi yuksak aql iqtidorga hasad ko'zi bilan qaraydiganlar har bir davrda topilgan. Allomaning ustozlari tomonidan har doim e'tirof e'tilishi, boshqa toliblar darsga kechikkani uchun tanbeh eshitgani holda unga esa o'zgacha e'tibor qaratilishi, dars saboqlarini u kelmaganicha boshlamay turishi kabi holatlar, albatta, saboqdoshlarini g'ashini keltirgan va o'z navbatida turli ziddiyatli holatlarni paydo bo'lishiga sabab ham bo'lgan. Uning botiniy olamidagi valiylik belgilarini aglab yetkan ustozlari Abu Bakr Iyodiy, hattoki, uning hol ahvolidan ko'z quloq bo'lish uchun madrasadagi mas'ul kishiga ham ta'yin etgandi, chunki Muhammad ibn Muhammad kechalari tahajjud nomozlarini ado etishga odatlangani, ba'zi hollarda ibodat vaqtida xushuga berilib o'zini yo'qotishgacha borar edi. Yozuvchi alloma siyratidagi karomatlarni, xudo tomonidan berilgan o'zgacha iqtidor va undagi ilohiy tuyg'ularni asarda bu tarzda: "Ilohiy tuyg'ular, diniy tafakkur Muhammadga, go'yo ilm bilan emas, qonu jon bilan singgan edi. Ko'z oldida barq urib turgan, buyuk Parvardigorning cheksiz qudratidan, hikmatidan, rahmli va mehribonligidan darak berib turgan manzaralar oldidan u loqayd va g'ofil holda o'tib keta olmas edi. Har qadam, har lahzada tegrasini hayratu hayojan ila kuzatdi. Buyuk bunyodkor Zotga hamdu sanolar aytdi. Ketma-ket zikriy duolar o'qidi"[6;72-73] talqin etadi.

Luqmon Bo'rixon ham Imom Moturidiydagi valiylik, avliyolik sifatlarining zohir bo'lishini romanda ko'rsatib berishga harakat qiladi. Odatda, valiylik a'loamatlari, allomalarning tushida, yolg'izlikda xushu bilan ibodat qilayotganda a'yon bo'ladi. Muhammad Ibn Muhammadga namoyon bo'lgan avliyolik belgilarining zohir bo'lishi bilan bog'liq

hodisalar uning uylanish bilan bog'liq voqealar fonida yuz beradi. Gap shundaki, alloma o'z uyiga yaqin chorbog'da ota-onasining uylanish haqidagi taklifini o'ylab hayollar og'ushida yurgan paytida u chinor ostiga qurilgan arg'umchoqda uchib o'tirgan, zamin mahluqotiga o'xshamaydigan farishtamisol qizga ro'baro bo'ladi. Romanda ushbu ajib holat bunday tasvirladi: "Nogoh hurkkan ok kabutar misol uzun, harir enlarini qanotdek qoqib parvoz qildi. So'ng bir parcha parku bulut yanglig' yigitning shundoqqina ro'parasiga qo'ndi. Muhammad hayron qol, xuddi jodulangandek unga termilib turardi. Andak to'zg'in kokillar, hilol qoshlar, chaqin ko'zlar uni butkul asir etgan edi!"[6;43]. Ushbu kutilmagan holatdan hayratga tushgan Abu Mansur qiz o'tirgan chinor ostiga borsaki, na arg'imchoq na o'sha qiz bor edi. Bu unga ko'ringan birinchi ilohiy belgi bo'lsa, ikkinchi holat ham xuddi o'sha yerda sodir bo'ladi. Biroz oldin ko'rgan sohibjamolni og'ushida mast bo'lib yurgan chog' xuddi o'sha yerda chorbog'dagi chinor tagida oq kiyimdagi nuroniy otaxonga duch keladi. Otaxon unga "Ilohiy oq karvon" haqida mujda beradi. Romanda ular o'rtasida kechgan dialog bunday talqin etiladi: "Muhammad yuribmas, go'yoki uchib ufq etagiga singib borayotgan oppoq ot va tuyalarga hangumang qarab qoldi.

"O'ksimang, o'g'lim, oq karvon hali yana qaytgay.

"Siz aniq sabru toqat ila kuting".

"Tez qaytarmikan?" — o'rtanib so'radi yigit.

"Bilmam. Lek ishonchim komilki, ani kutishga sizning chidamingiz yetgay"[6;45].

Bo'lib o'tgan voqealarning ro'yomi yoki hayolot olamida bo'layotganligini anglab ulgurmasdan nuroniy otaxon ham ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bo'lib o'tgan g'ayritabiiy voqealardan sarxush bo'lib yurgan Abu Mansur Moturidiy o'zining to'yi kechasida chorbog'da ko'rgan sohibjamolni emas boshqa qiyofadagi Mastonbibini uchratadi.

Shu kundan boshlab o'sha chorbog'da ko'ringan sohibjamol allomaning ibodat chog'laridagi hasbu hol paytlari goh tushlariga kirib unga namoyon bo'lar edi. Bu ilohiy mujda unga Qur'oni karimdagi oyat orqali ham a'yon bo'ladi. Kunlarning birida ulug' mutafakkir ibodatlaridan keyin uyquga ketadi. Mana shu paytda unga "Duxon" surasining ellik to'rtinchi oyati karimasi ya'ni Alloh taolo marhamat qiladikim: "Mana shunday! Yana, biz ularga oppoq yuzli katta va chiroyli ko'zli hur qizlarni juft qilib berurmiz" tarzida eshutiladi. Romanda mana shu tarzda allomaga nasib etgan valiylik va avliyolik sifatleri tasvir va talqin etiladi.

Imom Moturidiy o'z e'tiqodi, mustahkam irodasi va yillar davomida orttirgan sof e'tiqodiy bilimlari tufayli davr ziddiyatlariga qarshi tura oladi hamda islom dini va ahli sunna val jamoa e'tiqodiga oid chuqur bilimiga ega bo'lsa-da o'sha davrda avj olgan aqidaviy kurashlardan o'zini uzoq tutishga harakat qiladi. Aksincha, Samarqanddagi mo'taziliylar yetakchilaridan biri hisoblangan Abu Rizo Tusiy tuzog'iga ilingan bolalik va madrasadagi hamsobog'i hisoblangan Bosiq Laliyni yanglish yo'ldan qaytarishga undaydi hamda u ergashgan yo'lning xat'o ekanligini islomiy va aqidaviy bilimlar bilan isbotlab beradi. Yozuvchi qahramonlarning ma'naviy qiyofasini ochib berishda dialog va monologlardan o'z o'rnida foydalanadi. Bu asarda uzundan-uzun talqin etiladigan bayon uslubini cheklashga xizmat qilishi bilan birgalikda roman syujetini konflikt asosiga qurilishini ta'min etadi. Bu esa kitobxon va tadqiqotchini davr bilan bog'liq intirigalar olamiga tezda olib kiradi va olis o'tmish qaridagi insoniy ziddiyatlar va g'oyaviy kurashlarni yana-da teranroq anglab yetishiga xizmat qiladi. Quyidagi tasvirlarda Imom Moturidiy hamda Vosiq Ibn Qosim o'rtasida kechgan mo'taziliylar o'zlariga qurol qilib olgan mantiqiy muhokamalar konflikti bunday kechadi: "Bale! Alhol, mantiq tarafdin boqsak, tomiringizda bek-boyonlar qoni mavjudligini nechuk dalillash mumkin? Illo, bo'g'zingizga tig' tortsalar barchaniki yanglig' qizil qon oqadi. Yo, sizning, bek-sardorlar avlodining qoni sarug' yoxud sabza tusmu?"

Vosiq ibn Qosim jahldan bo'zarib, burun parraklari pir-pir uchib ilkis o'rnidan turdi.

“Naslimg‘a, qonimg‘a til tekkizmoqqa qandog‘ jur‘at ettingiz? Murodingiz ne?”

“Bale! – deb jilmaydi Muhammad, – shul kichik bahsimiz ikki haqiqatni yuzaga chiqardi, inshaalloh. Avvalo, har nedan mantiq izlash murodni hosil qilmagay, so‘ngra, mana, guvoh bo‘ldik, zot borasida nomunosib so‘z tinglamoq ojiz bir bandani shu qadar darg‘azab ayladi, ki Alloh subhona va taoloning zoti, sifati haqinda qay jur‘at ila bahs yuritmoq mumkin?! Illo, sizni mahliyo etgan o‘shal kitoblarg‘a tayanib aqida bobida munozara yuritmak, Chin cho‘pi ila sho‘rva ichmoqdek gap. Shul bois, noma‘qul qasddan, ul qaltis yo‘ldan voz keching, do‘stim” [6;118]. Alloma Imom Moturidiy mana shu kabi mantiqiy va hayotiy dalillar orqali adashgan firqalarning xatò yo‘lda ekanligini ko‘rsatib beradi. Yozuvchi davrning ziddiyatli manzaralarini ochib berishda o‘z qahramonlariga ko‘proq badiiy funksiya yuklaydi. Agar e‘tibor berilsa, Vosiq ibn Qosim madrasa ta‘limini ko‘rgan va diniy bilimlarni anchayin puxta egallagan Imom Moturidiy bilan birgalikda ulg‘aygan diniy ulamo. Mana shunday yetuk bilimga ega siymoning islom dinining ma‘naviy ildizlariga bolta urmoqchi bo‘lgan firqalar ta‘rafiga o‘tib ketishi Somoniylar hukmronligi ostida bo‘lgan Samarqand zaminida fina urug‘i naqadar keng quloch yoyganlidan dalolat beradi. O‘z navbatida. diniy-fiqhiy bilimlardan yetarlicha bilimga ega bo‘lmagan avom aholi mo‘taziliylar kabi firqalarning oson nishoniga aylangan. Mo‘tazila kabi adashgan firqa vakillari asosan jamoat joylarida musulmon ummatiga qarshi aqlga qarshi keladigan mantiqiy masalalardan so‘z ochib ahli sunna va val jamoat vakillarining mavqeyini pasaytirishni o‘zlariga maqsad qilib olishgan va shu orqali xalq orasida o‘z tarafdorlarini shakllantirishni maqsad qilganlar.

Valiy zotlar siyratiga xos bo‘lgan darveshona xulq-atvor, jamiyatdan ajralgan holda toat ibodatlarga berilish kabi hayot tarzi Imom Moturidiy ham chetlab o‘tmagan. Abu Mansur Moturidiy ham o‘zini jamiyatdan cheta tutar, yolg‘izlikda toat ibodat qilishni xush ko‘rar edi. Lekin allomaning bolalikdagi qadrdon ustozlari Iyodiyning ma‘naviy qo‘llovi va da‘vatlari tufayli Abu Mansur Moturidiy Juzjoniya madrasasiga mudarris bo‘lishiga rozilik beradi. Yozuvchi ustoz Iyodiy obrazini IX - X asr Samarqand ma‘naviy muhitining uyg‘oq va yetuk vakillaridan biri sifatida talqin eta turib, allomani islom dini rivoji uchun jonbozlik ko‘rsatadigan, uning ma‘naviy tanazzuliga qarshi kurashga bel bog‘lagan shaxs sifatida talqin etadi. Uning shogirdi Imom Moturidiyga qilgan ushbu xitobida bu jihat yaqqol namoyon bo‘ladi: “Bale! Illo, olimning farog‘ati dinning halokatidir. Ahli ilm bamisli sarhad posboni yanglig‘ sergak, hushyor turmog‘i, ummatni, Islomni fitna-fasoddin qo‘rimog‘i lozim” [6;124]. Imom Moturidiy faqatgina, islom dini ta‘limotiga oid barcha bilimlarni mukammal o‘rganib qolmasdan mo‘tazila va qadariya kabi firqalar o‘zlariga qurol qilib olgan antiq yunon olimlarining falsafa va mantiq ilmiga oid kitoblarni toliblik davridayoq o‘qib o‘rganadi hamda o‘z saboqlarida ahli donishlarga mantiq ilmidan ham saboq bera boshlaydi hamda bunda me‘yor saqlash zarurligini ta‘kidlagan holda uning mazmun-mohiyatini: “Tag‘in misol ayting, hazrat”, - o‘tindi kimdir. “Xo‘b, - mudarris andak o‘ylangan bo‘ldi, – sahro uzra ikki talaba ketur, birining yuzi pok, birisi nopok, qay birida hammomga rag‘bar bisyor?

“Albatta, nopok talabada”, – baravar chuyvillashdi shogirdlar.

Mudarris bosh chayqadi. “Bil‘aks, pok talaba ko‘proq moyil. Chunki ul nopok do‘stini ko‘rib, men ham nopokman, deb gumonga boradi. Illo, sahroda ko‘zgu yo‘qqi, o‘ziga qarab boqsa”... kabi hayotiy misollar bilan dalillashga harakat qiladi. Yozuvchi alloma obrazini mana shunday hayotiy misollar orqali tasvirlar ekan uning siymosiga yana-da xalqchil ifodaviylik yuklaydi va bu orqali asar qahramonining jonli qiyofasini yaratishga harakat qiladi. Shu bilan birgalikda, uning siyratidagi bag‘rikenglik, kechirimlilik va halimlik sifatlarini ham balandparvoz satrlar tizmasida emas, balki badiiyatning muhim sharti bo‘lgan hayot haqiqati konteksidan chekinmagan holda talqin etadi. Masalan, Imom Moturidiy mo‘taziliylar singari adashgan firqalar hiylasiga ishonib, noto‘g‘ri e‘tiqodiy qarashlarni o‘zlariga dasturilamal qilib

olgan adashgan ummat haqida hech qachon sha'riy fatvo bermagan, aksincha ularni bu yo'ldan qaytarishga da'vat etadi. Shu barobarida o'z shogirdlarini ham ular haqida malomat qilishdan tiyilishga unday turib, bahs-munozarada odob-axloq e'tikasiga qat'iy amal qilish zarurligini ta'kidlaydi. Ya'ni haybatli musulmon kishi o'zgalar bilan bo'lgan har qanday bahsli vaziyatlarga johilona so'zlar foydalanmasdan, o'z fikrlarini asosli raddiyalar bilan isbotlash zarurligi chin mo'minga xos jihat ekanligini aytib o'tadi. Bu masalada alloma o'z qarashlarini bunday bayon etadi: "Nafaqat musulmonlar, balki g'ayriislom kishi uchrasa-da, bahs-munozarada johilona haqoratdin tiyiling, ki bu mardu maydonlarg'a xos ermas. Qarg'ish, malomat, ayyuhannos zaiflar ishidur. Siz fikrga qarshi fikr ila zarba uring, raddiya bering. Unutmang, ki mo'minning haybati, ziynati ma'rifatdadur, ilm nuridadur" [6;137]. Allomaning bahs-munozara haqidagi tanqidiy qarashlari bugungi zamonaviy diplomatik munosabatlarda axloq-odob etikasi va muloqot madaniyatida ham muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari diniy-marifiy masalalar yuzasidan bo'ladigan davra suhbatlarida ehtiroslarga berilmaslik, o'z fikrlarini asosli dalillar bilan isbotlay olish bugungi zamonaviy komil inson uchun muhim jihat hisoblanadi.

Yozuvchi Imom Moturidiyning ma'naviy qiyofasini, uning olim va islom dini arkomlarini mahkam ushlagan diniy arbob ekanligini o'z davri bilan bog'liq aqidaviy, g'oyaviy kurashlar fonida ochib berishga harakat qiladi va bu orqali IX-X asrlar ko'hna Samarqand va alloma obrazining jonli qiyofasini gavdalandirishga harakat qiladi. Romanning "Maydondagi munozara" bobida Samarqand hokimi Nizom Ibn Parvez boshchiligida ahli sunna val jamoa taraflari hamda adashgan firqa vakillari bo'lmish mo'taziliychilar o'rtasida islom dinidagi aqidaviy masalalar masalar yuzasidan katta bahs munoraning badiiy talqini aks etadi. Mana shu jarayonda, tarixda Imoul xudo e'tirofini olgan alloma Imom Moturidiyning aqliy va ruhiy quvvati naqar teran ekanligini uning islom dini to'g'risi qilgan davatlari va ularni Qur'oni karim va Hadisi sharifda kelgan misollar va rivoyatlar orqali o'z fikrni dalillashida ko'ramiz. Masalan: "Ki g'ayriislom olamining musulmonlar lashkarini tig' ila, harbu zarb ila mahv eta olmaslikka ko'zi yetdi. Alar angladi, ki ummat ichig'a fikriy lashkar tashlamoq lozim. Islom aqidasig'a, mafkurasig'a porakandalik yetkazmoq lozim. Va shu maqsadda bel bog'laganlar. Ahli ilm orasig'a fikriy ziddiyatlar solib, alarni firqa-firqag'a ajratib bir-birlarini mahv etishga undashni ko'zlaganlar. Ogoh bo'ling, ey, ahli ilm!" [6;165-166] Allomaning ahli islom ummatiga qilgan ushbu chaqiriqlari nafaqat o'z davri, balki bugungi kun uchun ham dolzarblidir. Hozirda ham musulmonlar orasida yod g'oyalar va aqidalarga ergashib, turli diniy tashkilotlar va terroristik guruhlariga qo'shilib qolayotganlar ham oramizda yo'q emas. Yoki so'nggi yillarda anchayin urfga aylanib borayotgan salbiy odatlar: dinimiz rivoji uchun xizmat qilayotgan ulamolar, ahli ilmlarimizni obro'sizlantirish maqsadida chiqishlar qilish, guruh bo'lib ular haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatish kabi ishalar shular jumlasidandir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, islom dining ma'naviy ildizlarini qurutmochi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy guruhlar hozir ham shu maqsad yo'lida, turli usul va vositalar orqali yashirin tarzda harakat qilib kelmoqda. O'qirman ham Imom Moturidiy, Qosim La'liy, Idris Shomiy, Nizom Ibn Parvez kabi orazlarning o'zaro insoniy ziddiyatlari fonida o'tmishda bo'lib o'tgan voqealarni: yaxshilik va yomonlik, ma'rifat va jaholat o'rtasidagi kechgan insoniyatning umumbashariy kurashlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan o'zining tafakkur olamida tahlil qilishi turgan gap. Chunki Luqmon Bo'rixon tarixiy materialga ishlov berishda o'z mahorati va adabiy estetik tamoyillarini asar qahramonlari va o'tkir drammatizm asosiga qurilgan syujet voqealar tizmasiga singdira olganligini quyidagi jihatlarida ko'rishimiz mumkin. Birinchidan, olis o'tmish qarida muqaddas islom dinimiz atrofida kechgan aqidaviy, g'oyaviy, mafkuraviy kurashlarni shunday talqin etadiki, o'qirmanda islom diyorlarida hamda butun dunyoda, islom ummati va diniyatiga bo'layotgan adolatsizliklar, bir din vakili bo'lgan musulmonlarning turli

mazhablarga bo'linib ketishi natijasida o'zaro g'anim bo'lib qolishi haqidagi tasavvurlar kitobxon xayolotida yarq etib bo'y ko'rsatadi. Ikkinchidan, yozuvchi ikki zamon va makondagi voqeliklar talqinida o'zaro uzviylikni mana shu tarzda ta'minlashga astoydil harakat qiladi va buni asarda pafos darajasiga yetkazgan deyishimiz mumkin. Masalan, romandagi qizg'in bahs munozaralar tasviri, alloma Imom Moturidiyning darveshona va sirli hayot tarzi har qanday kitobxonni o'ziga maftun etmay qolmaydi.

Romanda yozuvchi Imom Moturidiy obrazini yaratishda allomaning maishiy hayot tasviriga ham keng o'rin beradi. Masalan, Mastonbibini uning umr yo'ldoshi sifatida tasirlanadi, lekin ular o'rtasidagi tafakkur va dunyoqarashdagi ziddiyatlar yaqqol ko'rinadi. Jumladan, u allomaning botiniy va zohiriy olamini hech qachon anglab yetolmaydigan, dunyoviy hoyu-havasga ruju qo'ygan, alloma Imom Moturidiyga nomutanosib ayol sifatida talqin etiladi. Lekin shunday bo'lsa-da, alloma Mastonbibining har qanday ayollik xarxashalariga e'tibor bermas, unga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishga harakat qilgan. Yozuvchi uning nafaqat buyuk alloma balki siz-u biz kabi oddiy inson sifatidagi insoniy qiyofasini ham asarda hayotiy misollar bilan ochib beradi. U ikki qiz farzandidan so'ng o'g'il farzand ko'rganida naslimning davomchisi deb behad suyunadi va unga Mansur deb ism qo'yadi. Shu asnda uning o'z umr yo'ldoshi va oilasiga munosabati aychayin o'zgaradi va oilaviy rishtalar birmuncha yaxshilanadi. Lekin bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmaydi. Mansur noma'lum kasallik tufayli erta vafot etadi. Bu holat alloma va uning oilasini chuqur qayg'uga soladi va alloma yana uzlatga chekinib, toat-ibodatga beriladi. Birdan bir yupunchi moturidlik nevarasi No'mon ham tadqir taqazosi bilan Buxoroga ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Alloma nevarasi No'monni o'zi tarbiyalab ulg'aytirish umidlari shu tarzda sarobga aylanadi. Bu holat shusiz ham g'am-g'ussaga botgan Imom Moturidiyning yana-da istirobga soladi. Asardagi ushbu tasvirlarda allomaning oddiy inson sifatida qiyofasi va qalb kechinmalari yaqqol namoyon namoyon bo'ladi: "Jajji No'mon xonadonida paydo bo'lgan chog', Abu Mansur hamma yumushlarni bir chekkaga qo'yib, bor dunyoni unutib nevarasiga talpinar, uni quchib-o'pib, bag'riga bosar, ertayu kech o'ynatar, hatto, madrasaga borishni ham paysalga solar edi. Ammo bu saodatli damlar ham uzoqqa cho'zilmadi. No'mon endigina besh yoshga to'lgan payt quda-qudag'ay Buxoroga ko'chib ketadigan bo'lib qolishdi... O'sha kuni bobosining bo'ynidan mahkam quchgan No'monni katta yo'l bo'yigacha olib borib qo'ygan, ma'yus va g'amgin uyiga qaytgan Abu Mansurning qaroqlari jiqqa yosh edi" [6;190]. Turkiy qavmlarda nevara farzandga o'zgacha mehr muhabbat bilan qaralgan. Bu sharqona bolajonlik sifati Imom Moturidiyda bo'lmasligi mumkin emas, albatta. Masalan, nevarasi kelgan chog' u bilan erta-yu kech vaqtini o'tkazini hatto madrasaga ham borishni kanda qilib, butun borlig'ini No'monjonga bag'ishlashi asarda ishonarli tarzda talqin etiladi. O'g'il farzandi vafotidan keyin o'zining bor iste'dodi va qobilyatini nevarasiga singdirib, tarbiyalash kabi orzularining ko'nglida armon bo'lib qolishligi uning ham tadqir sinovlari oldida ojiz qoladigan bir banda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi allomaning maishiy hayot tasviri bilan bog'liq voqeliklar talqini asarda o'z o'rnida beriladi va bu asar qahramoniga turli rakursdan qarashga keng imkoniyat yaratadi. Bu jarayonni ochib berishda asarda qo'llanilgan badiiy detallar ham muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, alloma xotini Mastonbibini tayyorladigan ovqatlarning xalol va pokiza tayyorlanishiga shubha bilan qaragani bois keyinchalik o'zi taom tayyorlashga odatlanadi, yoki Samarqandning yangi kelgan hokimi barcha uzumzor sohiblariga sharob solig'i solganida gunoh ishlarga sherik bo'lmaslik uchun o'zining shaxsiy uzumzorini vaqf mulkiga o'tkazib beradi. Shuningdek, alloma hukmdorlar tomonidan tashkil etiladigan turli bazmlarga o'z toifasidagi mudarris-u diniy ulomlar qatnashgani holda u bunday ziyofatlardan o'zini uzoq tutar edi, hattoki, bir saroy bazmiga ishtirok etmaganligi uchun fitna qurboni bo'lishi ham mumkin edi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, romanda Imom Moturidiy islom dini

arkomlarini mahkam ushlagan, bu yoʻlda butun bir hayotini baxshida etgan hamda sof islom dini aqidalarini ahli sunna val jamoaga eʼtiqod qiluvchi musulmanlarga targʻib qilinishi barobarida bu amallarga oʻz shaxsiy hayotida ham qattiq amal qiluvchi shaxs sifatidagi qiyofasini koʻrishimiz mumkin.

Yozuvchi ulugʻ alloma shaxsiyati bilan bogʻliq voqeliklarning kompozitsion qurilishida betakror, bir biriga oʻxshamagan, sirli va oʻzaro ichki konflikt asosiga qurilgan syujetdan foydalanadi. Masalan, Idris Shomiy fitnasiga uchib, Imom Moturidiyni jazolamoqchi boʻlgan Xolid Xalaj Boʻronbiy yoʻlda kuchli qor yogʻishi natijasida otdan yiqilgani holda oyogʻi qattiq jarahotlanib ortga qaytishga majbur boʻladi. Bu holat oʻqirmanda haq yoʻlida xizmat qilgan ulugʻ allomaga tigʻ qayragan har bir kimsa alaloqibat yaratguchining qahriga duchor boʻladi degan taassurot qoldiradi. Yoki asardagi “Sahardagi sirli mehmon” bobida esa xalq ogʻzaki ijodiga xos sayyor syujet elementlarini koʻzga tashlanadi. Jumladan ertak va dostonlarda podshoh musofir, yoʻlovchi, savdogar qiyofasida qoʻl ostidagi mamlakatining ahvolini oʻrganish uchun safarga chiqishi, mashhur alloma, hunarmand kabilarning uyiga mehmon boʻlishi kabi voqea-hodisalar koʻplab uchraydi. Asarda ham Imom Moturidiyning xonadoniga uning ilm-zakovatiga ixlos qoʻygan Somoniylar saltanati hukmdori Ahmad Ibn Ismoil darvesh qifoyasida tashrif buyuradi. Oʻz davrining ikki buyuk siymolari oʻrtasida kechgan oʻzaro suhbat tafakkur jangidek kechadi goʻyo. Ahmad Ibn Ismoil oʻzini Buxoro darveshlari Abdulaziz Ibn Ibrahim tanishtiradi. Somoniylar hukmdori alloma bilan podshoh sifatida emas balki darvesh qiyofasida suhbatlashishni afzal boʻrishi nafaqat Samarqand zaminida, balki butun saltanatda dovuq qozongan Imom Moturidiyning olim va odam sifatidagi insoniy fazilatlariga shaxsan oʻzi guvoh boʻlishni istaganligidan dalolat beradi. Bir qarashda bu holat oʻqirmanda odiiy tarixiy voqelik sifatida qaralishi mumkin. Lekin bu yerda davrning ziddiyatli intrigalariga guvoh boʻlamiz. Sirli darveshning ilk tashrifidayoq allomaning shogirdi Qutlugʻ Muhammad undan shubhalanadi va oʻzini darvesh deb tanishtirgan kimsani hokimning odami deb oʻylab u bergan sovgʻani ustoziga olmaslikka undaydi. Chunki oʻsha davrda yuqorida taʼkidlaganimizdek, islom oʻlkalarida avj olgan gʻoyaviy-aqidaviy kurashlar natijasida toʻgʻri eʼtiqoddagi yetuk ulamolar ham moʻtazila va qadariya kabi firqalarning fitnasi qurboniga aylangan holatlar ham boʻlgan. Bundan tashqari, Samarqand zaminida butun boshli adashgan firqalarning islom ummatiga qilgan gʻoyaviy xurujlariga Imom Moturidiy va uning jamoasi tomonidan raddiya berib kelinayotir edi. Shu sababli oʻzi ham ilm-maʼrifatdan anchayin xabardor boʻlgan Ahmad Ibn Ismoil u bilan gʻoyibona tarzda uchrashishni istaganligi tabiiy hol. Shoh va ulamo oʻrtasida kechgan islom aqidasi oʻziga xos bahs munozara Imom Moturidiyning hukmdorga bergan jumboqli savoli bilan tugaydi. Ushbu yechimsiz syujet voqeligi, asardagi “Amir huzuridagi bahs” bobi bilan bevositda bogʻlanadi. Chunki Ahmad Ibn Ismoil Samarqandga tashrifi davomida shaharning olim-u fuzalolari bilan uchrashishni hamda turli firqalar va guruhlar oʻrtasidagi nizolarga barham berishni maqsad qilgan edi. Bu masalaga somoniy hukmdorining aralashishi tarixiy sharoit naqadar murakkab ekanligidan dalolat beradi. Mana shu bob tarixda Imoul xudo unvonini olgan ilohiyatshunos alloma Imom Moturidiyning Islom dini uning aqidaviy asos negizlarini chuqur egallagan olim sifatidagi obrazi toʻlaligicha namoyon boʻlishi barobarida roman kluminatsiyasiyasining eng choʻqqisi deyishimiz mumkin. Chunki butun bir koʻhna Samarqand zamini va unga tutash hududdagi katta kichik nomdor ilm ahli hukmdor saroyiga jam boʻladi va moʻtaziliylar va unga qarshi alloma Imom Moturidiy boshchiligida oʻzaro qizgʻin bahs boʻlib oʻtadi. Yozuvchi oʻz badiiy konsepsiyasiga monand ushbu tarixiy voqelikning jonli qiyofasini diniy-aqidaviy dalillar vositasida ishonarli tarzda yoritadi. Va yana eng muhim jihati shundaki, asar tili xalqona tilda obrazlantirilgani bois bu jarayonni barcha oʻqirman toʻlaligicha tushuna oladi. Jumladan, alloma oʻz qarashlarini ifodalar ekan,

mo'taliza, qadariya kabi firqalarning islom ta'limoti va aqida borasidagi shar'iy hukmlariga islomgacha bo'lgan antik davr olimlarining mantiqiy qarashlari asosida hukm chiqarish islom dinining asos negizlaridan uzoqlashishiga sabab bo'lishi, keyinchalik turli chalkashliklar va sha'riy nizolar keltirib chiqarishini, aqida va kalom ilmi masalasida faqatgina muqaddas kitoblarda keltirilgan hukmlarga tayanishga chaqiradi va buni dalillar vositasida isbotlashga harakat qiladi. Masalan, alloma islomgacha yaratilgan xiristianlik dinining Iso alayhissalom vafotidan keyin unga e'tiqod qiluvchi jamoa tomonidan o'zgartirilishi, Olloh roziligini istab rohiblikni o'ylab topganligi, vaholangki, bu amal ularning muqaddas kitobi Injilda keltirilmaganligi, alal oqibat bu yo'lni tanlaganlar o'z maqsadlaridan chekinib, fisqu-fasodga yo'liqqanligidan ogoh eta turib o'z qarashlarini bunday bayon etadi: "Bizni hushyor tortishga undaydigan oyatdagi ikkinchi jihat esa Alloh taolo nasroniylar misolida bizni yanglish yo'l tutish oqibatidan ogohlantirmoqda. Ming afsuski, ayni nasroniylarni adashtirgan ta'limot biz musulmonlar orasiga allaqachon kirib bo'lgan, ko'plab olimlarimiz uni tashrif, tashviqot ham qilib yurishibdi. Men, faqat mo'tazila birodarlarimiz tortishib yuradigan masalalarni nazarda tutganim yo'q. Men bugungi kunda barcha tortishuvlarga sabab bo'layotgan, barcha xatolarning asl manbai haqida gapirmoqdaman. Bu mantiq ilmidir. Uni anglab-anglamay qo'llashdir" [6;248]. Alloma o'z qarashlarini mana shu kabi asosli dalillar bilan bayon etadi hamda mantiqiy fikrlash guman va taxmin asosiga qurilishi, sha'riy va aqidaviy masalalarga hukm chiqarishda mantiq ilmiga suyanishdan tiyilishga undaydi. Luqmon Bo'rixon alloma obrazini real vaziyatlar nuqtayi nazaridan talqin etar ekan uning donoligi, topqirligi, olimlarga xos keng mushohadakorlik kabi sifatlarini mana shunday kluminatsion voqealar tizginida obrazlantiradi. Masalan, Samarqanddagi hukmdor saroyidagi "Baytul majolis"da ham somoniylar hukmdori Ahmad Ibn Ismoil boshchiligidagi o'z davrining yetuk olimlaridan tortib allomaga qarshi bo'lgan mo'tazila qavmining eng nomdor notiqdari yig'ilgan anjumanda Imom Moturidiy obrazi voqealar markazida turadi hamda o'z raqiblariga qarshi kurashga otlagan pahlavon kabi harakat qiladi. Mantiq ilmiga chuqur berilish naqadar xat'o ekanligini alloma amir saroyi ya'ni "Baytul majolis"ga qo'yilgan eshiklar va unga ishlov bergan naqqosh misolida asoslab berishga harakat qiladi. Imom Moturidiy saroyning bosh eshigini diqqat bilan ko'zdan kechira turib, unga mahoratli usta ishlov berganligi, eshikdagi uslubiy bezak Misr uslubiga xos ekanligi, lekin bezaklarga ishlov berishda naqshlarida ayrim ju'ziy kamchiliklar borligini, bu naqqoshning hali uylanmagan yigit ekanligi va bu kabi nozik ishni shoshqin harakatlar bilan bajarganligini o'z tafakkur mantig'i nuqtayi nazaridan isbatlashga harakat qiladi. Mantiqiy fikrlashda hech qanday monelik yo'qligini da'vo qilgan mo'tazila qavmi vakillari bo'lmish Samarqand hokimi Nizom Ibn Parvez bu ishga bosh qosh bo'lganini iddoa qilib, Imom Moturidiyning fikrlarini qo'llab quvvatlagan bo'lsa allomaga qarama-qarshi tomonda turgan mo'taziliylar qavmi vakili bo'lmish Vosiq Ibn Qosim allomani o'zini ham mantiqqa tayangan holda hukm chiqarganlikda ayblab, mantiqiy fikrlashga chek-chegara bo'lmasligini ta'kidlaydi. Mana shu jarayonda alloma masalaning asl mohiyatini asoslab berganligini asardagi ushbu parchada ko'rishimiz mumkin: "Illo, naqqosh haqidagi mantiqiy xulosalar, garchand to'g'ri chiqqan bo'lsa ham, afsus, kaminaning barcha tashrifi gumon va taxmindan iborat edi. Masalan, yigit Misrda emas, misr uslubidan ta'lim beruvchi boshqa maskanda o'rgangan yoki otasidan saboq olgan bo'lishi mumkin. Yoki u etimdur, amakisining qaramog'ida qolgan, so'ng amakisi unga ustozlik qilgan va kamina otasi deb aytayotgan odam shunda amakisi bo'lib chiqar, ehtimol... va hokazo. Ya'ni bu xulosalarning hammasi taxmin va gumondan iborat. Tagin bir so'z, kaminani ma'zur tutsunlar, ki muhtaram hokimimiz mantiq ilmiga g'oyat oshuftalik kasridan andak adashdilar. Illo, "Baytul hikmat" eshiklari buyuk amir Ismoil Somoniy zamonida o'rnatilgandur. (Ushbu eshiklarni o'rnatishda Samarqand hokimi Nizom Ibn Parvez o'zi bosh-qosh bo'lganligini aytib o'tadi. Sh. S.)" [6;256-267].

Shu barobarida alloma mo'tazilachilarning Olloh taoloning sifatlarini bilishga intilishi, bu haqda o'zlarining islom aqidasiiga zid bo'lgan qarashlarini ilgari surishlari hamda jon va ruh haqidagi bahs-munozaralardan tiyilishga dav'at etadi. Islom ta'limotida bandalar g'ayb ilmiga oid tushunchalarning mohiyatiga yeta olmasligini, bunday ishdan Payg'ambarimiz ham qaytarganligini Qur'oni karimdagi "Isro" surasidagi bu oyat bilan izohlaydi: "Zero, Alloh taolo aytadiki: A'uzu billahi minash shaytonir rojiym. "(Yey, Muhammad!) Sizdan ruh haqida so'raydilar. Ayting: "Ruh faqat Rabbimning ishidandir". Sizlarga esa oz ilm berilgandir" [6;259].

Alloma mana shu tarzda musulmon ummatini adashgan firqalar tomonidan chalkashtiradigan, mantiqiy va falsafiy qarashlari bilan islom aqidasiiga zimdan zarba bermoqchi bo'lganlarning fikriy hujumlari mana shu tarzda asosli dadillar bilan raddiya beradi, ularning qarashlarini xat6 ekanligini isbotlaydi. Shu barobarida Imom Moturidiy o'z qarashlarini faqatgina aqida va kalom ilmi haqidagi shar'iy masalalarni sharhlar ekan ko'r-ko'rona Qur'oni Karim va Hadisi shariflardan misollar beltirish bilan cheklanib qolmasdan ularning hamma tushuna oladigan tilda sharhlaydi va mo'tazila qavmining naqliy da'volariga fikriy zarbalar beradi.

Romandagi voqeliklar tizgini bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq tarzda kechadi va asardagi katta kichik syujet linyalari Imom Moturidiy obrazi atrofida birlashishini ta'min etadi. Bundan tashqari olis o'tmish qaridagi tarixiy voqealar o'quvchi ko'z o'ngida xronologik tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, darvesh qiyofasidagi Ahmad Ibn Ismoilning allomaning xonadoniga sirli tashrifi hamda o'zaro suhbat davomidagi notugal syujet voqeligi "Amir huzuridagi bahs" bobiga bevosita bog'lanadi. Chunki alloma Somoniy hukmdoriga "Mendagi bor narsa xalifayi zamonda ham, amir Samoniyda ham yo'q" mazmunida o'z uslubiga monand jumboqli savol bilan ulug' hukmdorni kuzatib qo'ygan edi. Aslida masjidda ahli ilmlar orasida bo'lib o'tadigan bu masala "Baytul majolis"dagi amir o'rtasidagi katta munozarada davom etadi. Davrning ikki tarixiy siymosi o'rtasida bo'lgan tafakkur bahsi saroyda yig'ilganlar orasida ham qizg'in munozaraga sabab bo'ladi. Mana shu jarayonda ham Idris Shomiy va Vosiq Ibn Qosim boshchiligidagi mo'tazila qavmi vakillari Abu Mansur Moturidiy o'z bilimni nazarda tutib kibrga berilganligi Ahmad Ibn Ismoil va Xalifai zamonni esa ilmsizlikda ayblagan degan da'vo bilan ulug' allomani jamoat oldida obro'sizlantirishga harakat qiladi. Ushbu vaziyatda ham alloma, o'zining donoligi, topqirligi va keng mushohadakorligi bilan ushbu murakkab vaziyatga to'g'ri baho beradi va aslida jumboqday tuyilgan savolning javobini bu tarzda bayon etadi: "Hukmdor, aning javobi g'oyat sodda va jo'n. Hatto, bosh qotirishga-da, hatto, aytishga-da arziyas. Ma'zur tuting".

Aytsangiz-chi!" – beixtiyor tahdidkor tovush berdi amir, – o'shal kundan beri qon bo'lib ketdim!"

"Men xonumonimni nazarda tutib erdim, hukmdor. Axir kaminaniki kabi kulbai vayrona na xalifai zamonda, na ulug' amirimizda bor. Ahli yig'in olqishlaridan chor-atrof larzaga keldi. Ahmad Ibn Ismoilning ham yuziga tabassum qalqdi" [6;267]. Ijodkor mana tarzda davr ziddiyatlari, insoniy konfliktlar, olim va hukmdor o'rtasida kechgan munosabatlarni hayotiy misollar vositasida talqin etadi. Bundan shunday hukm chiqarish mumkinki, to'g'ri e'tiqoddagi va haqiqat uchun kurashgan tarxiy shaxslarning hayoti har doim konfliktlarga to'la bo'lganligi Imom Moturidiy obrazi misolida ko'rishimiz mumkin. Somoniy hukmdori ham ilm-ma'rifatdan xabardorligi va Imom Moturidiyning hech qanday bahs-munozaraga o'rin qoldirilmagan tarix nutqidan qanoat xosil qilganligi bois unga Imoul xudo, Imoul Mutakallimiyn unvoni bilan sharaflashi barobarida barcha ixtiloflarga yechim bo'ladigan va madraslarga qo'llanma vazifasini o'taydigan kitob bitishni buyuradi. Darhaqiqat, Abu Mansur Moturidiy o'zidan islom dini ta'limotiga oid turli masalalarni qamrab olgan "Kitob at-tavhid",

“Ta’vilat al-Qur’on”, “Sharh al-fiqh al-akbar”, “Bayan vahm al-mo’tazila” (Mo’taziliylarning noto’g’ri qarashlarini tanqid qiluvchi asar), “Kitob al-maqalat” kabi asarlarni o’zidan me’ros qilib qoldirgan.

Yozuvchi romanda alloma siyratidagi valiylik sifatlarini ko’rsatib berishda ramziy timsollardan mohirona foydalanganligini ko’rimiz mumkin va bu roman kompozitsion qurulishi va ijodkor uslubiga o’ziga xos originallik va betakror ifoda yo’sinini baxshida etadi. Masalan, ulamoning vafot etishi bilan bog’liq syujet voqeligini asarda “Oq karvon qaytgan kun” bobida tasvirlanadi. Oq karvon bilan bog’liq ilohiy hodisa allomaning yigitlik chog’ida bog’dagi sirli voqelik orqali unga zohir qilingan edi. Zero oq rang ezgulik, poklik va bandalar uchun yaxshi alomat belgisi sifatida talqin etiladi. Asarda Imom Moturidiyning dafn marosimida butun Samarqand zamini oppoq qorga burkanadi va “oq karvon va oppoq qor” asarda o’zaro razmiy ifada uyg’unligini ta’minlashga xizmat qiladi. “Oq karvon” ramziy timsoli esa asarda bunday talqin etiladi: “Ayni paytda xalq, ahli Samarqand oppoq, uzun karvonga aylanib buyuk allomani, Imomul hudo, Imomul mutakallimiyn Abu Mansur Moturidini so’nggi manziliga olib ketayotganini u bilmas va aslo bila olmas edi”[6;346]. Bundan tashqari, ma’lum bir vaqt bilan bog’liq o’zaro o’xshashliklar va ular o’rtasidagi o’zaro uyg’unlikni ham ko’rishimiz mumkin. Masalan, allomaga yigitlik paytida zohir bo’lgan “Duxon” surasidagi oyat ham erta tong subhidamda qulog’iga eshitiladi, Samoniy hukmdor ham uning xonadoniga erta tong mahali tashrif buyuradi va ulug’ allomaning vafoti ham suhbi sodiq ya’ni bomdod namozi vaqtida yuz beradi.

Xulosa. Luqmon Bo’rixon ushbu asarida islom olamida g’oyat murakkab va ziddiyatli davrda yashab ijod etgan, islom dini rivoji va uning kelajak avlodga o’zining asl holicha yetib kelishiga katta hissa qo’shgan ilohiyatshunos alloma Abu Mansur Moturidiy obrazini badiiy adabiyotda obrazlantirishga muvoffaq bo’ldi. Shu paytgacha diniy arboblari va shayx-valiylar obrazining obrazlari ask etgan bir qancha asarlar yaratilgani barobarida buyuk aqida va kalom ilmining bilimdoni hisoblanmish Imom Moturiy siymosi nazardan chetda qolayotgan edi. Yozuvchi badiiyatimizdagi mana shu kemptiklikni to’ldirdi desak ayni haqiqat bo’ladi. Asarda alloma obrazi, uning musulmon ummati uchun qilgan xayrli ishlariga xolisona baho berilgan va real tarixiy vaziyatlar tizginida ochib beradi. Shuningdek, asarda alloma siyratidagi valiylik va avliyolik sifatlarining zohir bo’lishi diniy-aqidaviy tushunchalar nuqtayi nazaridan ochib beriladi bu romanda o’z o’rnida va ishonarli tarzda talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. M. Shayxzoda. “Mirzo Ulug’bek”. Besh pardali tarixiy fojia. Asarlar 6 tomlik. –Toshkent.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 272 b.
2. S. Siyoyev. Ahmad Yassaviy. – Toshkent.: O’zbekiston, 2012. – 336 b.
3. A.Dilmurod. Pahlavon Muhammad: Roman. – Toshkent.: Sharq, 2006. – 432 b
4. Q.Yo’ldoshev. “Mohiyat realligi ifodasi” / Asad Dilmurod. Pahlavon Muhammad. Roman. – Toshkent.: Sharq, 2006. – 417-431 b
5. M.Omonova. Istiqlool davri o’zbek romanlarida shayx valiyilar obrazining badiiy talqinlari. Filol.fan.fals.dokt (PhD) disser. – Jizzax, 2022
6. L. Bo’rixon. Imom Moturidiy. —Toshkent.: Yosh kuch. 2023. –
7. D. G’ulomov O’zbek romanlarida syujetning retrospektiv tiri va uning badiiy-estetik funksiyasi: Filol.fanl.fals.dokt (PhD) disser. – Farg’ona, 2024
8. A.Rafiyev, N.G’ulomova. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. —Toshkent.: Sharq, 2013